

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA
№ UH06866635**

1. Loyihaing turi

Shartnoma

2. Loyihaing nomi

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

**Baliqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan
24.01.2022-yil.**

4. Mas'ul ijrochi

Baliqchi tuman adliya bo'limi huzuridagi davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 2022-yil 24-yanvar kuni "E-Huquqshunos" elektron tizimi orqali Baliqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan dizel yoqilg'isi yetkazib berish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasi loyihasi ekspertizadan o'tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan. Shartnomani o'rganish davomida quyidagilar aniqlandi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 22-bandiga asosan benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yoqilg'isi va ko'mir mahsulotlari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinishi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2011-yildagi "Budjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 241-son qarori bilan tasdiqlangan Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari Ro'yxatida dizel yonilg'isi uchun shartnomaning oylik summasidan 100 foiz miqdorida avans to'lovlari to'lab berilishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA QILAMAN:

Baliqchi tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan dizel yoqilg'isi yetkazib berish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasi loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksining 29-bobida ko'rsatilgan oldi-sotdi to'g'risida umumiy qoidalar hamda 29-bob 3-paragraf mahsulot yetkazib berish talablariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hamda budjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati asoslanganligi inobatga olinsin.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

24.01.2022

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i:**



J.Nazarov